

XUVAYDO SHE'RIYATI: MAZMUN QATLAMLARI VA POETIK USLUB

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti

3-bosqich talabalari

Mashrabjonova Robiya va

Kamolova Mo'mina

Anotatsiya: Ushbu maqolada Xuvaydoning g'azalchilikdagi o'ziga xos badiiy-ma'naviy qarashlari tahlil qilinadi. Shoirning lirik merosi, undagi ishq falsafasi, ma'no nozikliklari hamda o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o'rnini ilmiy asosda yoritiladi. G'azalning badiiy xususiyatlari baytlar talqini orqali ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Xuvaydo, g'azal, lirik meros, ishq falsafasi, badiiy tahlil, ma'no nozikliklari, o'zbek adabiyoti, tasavvufiy ruh.

Annotation: This article analyzes Khuwoydo's distinctive artistic and spiritual concepts in his ghazal poetry. The study explores the poet's lyrical legacy, the philosophy of love, subtle meanings, and his role in the development of Uzbek literature. The artistic features of the ghazal are examined through a close interpretation of its couplets.

Keywords: Khuwoydo, ghazal, lyrical legacy, philosophy of love, artistic analysis, subtle meanings, Uzbek literature, Sufi spirit.

KIRISH

O'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotida XVIII asrning ikkinchi yarmi alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu davr she'riyatida badiiy tafakkur, tasvir usullari va lirik ruhning yangi bosqichi shakllandi. Ana shunday ijodkorlar orasida Xuvaydo (taxallusi bilan mashhur bo'lgan shoir) o'zining nozik tuyg'ularni teran tasvirlash mahorati, lirik kechinmalarni nafis ifodalash uslubi bilan alohida o'rin tutadi. Shoirning g'azallari yorqin

badiiylilik, hayotiy mushohadaga boy mazmun, ramziy ifodalar, tasavvufiy talqinlar hamda ishqning turfa holatlarini badiiy falsafiy darajada aks ettirishi bilan ajralib turadi.

Xuvaydo ijodida oshiq timsoli ko‘pincha ruhiy iztirob, hijron, visolga intilish, sabr va beqarorlik kabi kechinmalar orqali namoyon bo‘ladi. Uning g‘azallari o‘zbek adabiyotidagi ishqiy lirikaning yuksak namunalaridan biri sifatida baholanib, o‘z davrining adabiy an‘analari va badiiy tafakkurini mukammal davom ettiradi. Shoirning poetik uslubi mumtoz she‘riyatdagi an‘anaviy mavzularni takrorlamasdan, balki o‘ziga xos badiiy mushohada, chuqur mazmun qatlamlari, tashbih va isti‘oralarning serqirra tizimi bilan boyigan.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Xuvaydo she‘riyati o‘zining badiiy boyligi, lirik mushohadalari va nafis mazmun qatlamlari bilan o‘zbek mumtoz adabiyotining yuksak namunalaridan birini tashkil etadi. Shoir g‘azallarida ishq, hijron, sadoqat, ruhiy iztirob va lirik kechinmalar o‘ziga xos falsafiy yondashuv bilan talqin qilinadi. Ayniqsa, tashbeh va isti‘ora kabi badiiy tasvir vositalarining sermahsulligi, lirik qahramonning ruhiy holatini nozik va ta‘sirchan ifodalashi Xuvaydoning poetik uslubini alohida ajratib turadi:

Sani ishqingda, ey dildor, na sabru na qarorim bor,

Jamolingni ko‘rgarga turfa chashmu intizorim bor.¹

Bu baytda oshiqning ruhiy holati asosiy o‘rinda. Shoir mahbubaning ishqida sabri ham, tinchi ham qolmagan. “Na sabr bor, na qaror” — bu oshiqning beqarorligi, qalb iztirobi. Uning ko‘zlari (chashmi) mahbuba jamolini ko‘rishga intizor, sog‘inch bilan to‘la.

Bu hijronning davom etishidan charchagan oshiqning holati. Oshiq o‘zini terak yaprog‘iga o‘xshatadi: doimo titragan, shamolda tebranadigan. “Na madorim bor” — kuchim qolmadi, holdan toyganman.

¹ Xojanazar Xuvaydo. Devon. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007

Oshiqning ruhiy charchoqligi tasvirlangan:

Terak yaфроqiga o'xshash yorokimdur mani larzon,

Xamisha erga ovezon yurarqa na madorim bor.

Keyingi baytda ichki dard va tashqi jiloning qarama-qarshiligi tasvirlanib, oshiq tashqaridan bardam, ichidan esa qon yutayotganligi aytiladi. Bag'ri shunchalik og'riydiki, go'yo qizil gul tikani sanchilgandek yirtilgan. Lekin yuziga qarasang bahordek go'zal, tabassumli:

Mani bag'rim to'la qondur qizil gul yunchasi yandig',

Agar koz ko'rsang yuzum, gul chamanzoru bahorim bor.

Maqtada esa oshiqga odamlar: "Bu yordan ko'ngil uz, voz kech!"

— deyishadi. Lekin u javob qiladi: "Men bu ishqdan faqat jonim chiqqanda, nafasim to'xtaganda ayrilaman. Undan oldin ko'nglim uzilmaydi". Bu eng kuchli baytlardan biri: oshiqning ishq i jon bilan birga ketadi. G'azal sof oshiqona lirikaning juda go'zal namunasidir.²

G'azallardagi mazmun qatlamlari nafaqat klassik ishqiy lirikaning an'anaviy yo'nalishlarini davom ettiradi, balki ularni yangi badiiy ma'nolar, chuqur insoniy kechinmalar va ramziy tasvirlar bilan boyitadi. Bu esa shoir she'riyatining XX–XXI asr o'quvchisi uchun ham dolzarb, ruhiy ta'siri baland, estetik jozibali bo'lib qolishiga sabab bo'ladi.

XULOSA

Xuvaydoning she'riy merosi — nafaqat mumtoz adabiyotning estetik qimmatiga hissa qo'shgan, balki o'zbek lirik tafakkurini yanada takomillashtirgan yirik hodisa sifatida ham e'tiborga molikdir. Shu bois shoirning g'azallarini poetik jihatdan o'rganish, ularning

² Jumaxo'ja n., Adizova I., O'zbek adabiyoti tarixi, darslik. Toshkent: Noshir - 2019.

mazmun qatlamlari, badiiy san'atlari va lirik obrazlar tizimini tahlil qilish bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir.³

Xulosa qilib aytganda, Xuvaydo ijodini poetik jihatdan o'rganish nafaqat mumtoz she'riyatning estetik qimmatini anglashga yordam beradi, balki o'zbek adabiyotidagi lirik tafakkurning tarixiy taraqqiyotini chuqurroq idrok etishga ham xizmat qiladi. Shoirning g'azallari bugungi o'quvchini ham o'ziga jalb eta oladigan kuchli badiiy ta'sirga egaligi bilan adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan muhim tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xojanazar Xuvaydo. Devon. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007
2. Jumaxo'ja n., Adizova I., O'zbek adabiyoti tarixi, darslik. Toshkent: Noshir - 2019.
3. Abdullayev V., O'zbek adabiyoti tarixi, Toshkent: O'qituvchi - 1967.
4. www.ziyo.uz
5. <https://bilimlar.uz>
6. <https://share.google/940B7ytdQEqwS4TYF>
7. <https://Kh-davron.uz>

³ Abdullayev V., O'zbek adabiyoti tarixi, Toshkent: O'qituvchi - 1967.